O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATINING STATISTIK AXBOROTNOMASI

2019 YIL
YANVAR-SENTABR

Urganch – 2019

SO‘Z BOSHI

Xorazm viloyatining statistik axborotnomasi Xorazm viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Xorazm viloyati statistika boshqarmasining yillik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2019 yil yanvar-sentabr oylari yakunlari bo‘yicha Xorazm viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Evropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, suv ta’minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari Yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya’ni, YaHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek Yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorliksub’ektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmonva baliq xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagitahliliy ma’lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Tahrizchilar: A.R.O‘tamuratov– Boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

A.I.Raximov–Boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari

MUNDARIJA

Nomi	bet.
Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar	7
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	**7-12**
Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi	7-12
II. SANOAT	**13-23**
Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish	13-20
Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	20-23
III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI	**24-38**
2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalariva hududlar bo‘yichataqsimlanishi	23-26
Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jaliklari toifalari va hududlar bo‘yicha taqsimlanishi	27-34
Hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish	34-38
IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	**39-50**
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sish suratlari	39-40
Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	41-44
Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2019 yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi	45
Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar	46
YAngi qurilish va rekonsruksiya hisobiga turar joylar va ijtimoiy obektlarni ishga tushirish	49
Qurilish ishlari	50-52
V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK	**53-57**
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari	57
VI. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	**58-61**
2019 yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalari)	58
2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari	59-61
VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	**62-76**

Nomi	bet.
Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni	61
Ro‘yxatga olingan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari va hududlar bo‘yicha taqsimlanishi	64-76
VIII. XIZMATLAR	**77-86**
Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish	75-84
IX. TRANSPORT VA ALOQA	**87-89**
Yuk tashish	87
Yo‘lovchi tashish	88-89
X. ISTE’MOL BOZORI	**90-92**
Chakana savdo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlari	91
Shahar va tumanlar kesimida chakana tovar aylanmasi hajmi umumiy ovqatlanishni qo‘shgan holda	92-94
XI. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	**95-105**
Viloyatning tashqi savdo aylanmasi	95-98
Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan foizda	99
Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan foizda	100
Xorazm viloyatida hududlar kesimida 2019 yil yanvar-sentabr oylarida Tashqi savdo aylanmasi hajmi (ming AQSH doll.)	105
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	**106-116**
Doimiy aholi soni	106-110
Aholining tabiiy harakati	111-112
Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni	113-114
2019 yil yanvar-sentabr holatiga aholi zichligi	116
XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	**117-122**
Ish haqi	117-118
Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni	119-121
Shahar va tumanlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi	124

Qisqartma va shartli belgilar

YaHM	–	Yalpi hududiy mahsulot	l.	–	litr
%.	–	foiz	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	ga.	–	gektar
kv.	–	kvadrat	tn.	–	tonna
km.	–	kilometr	[1], [2], [3].....	–	izohning mavjudligi
m	–	metr			

Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar
2019 yil yanvar-sentabr

	mlrd. so‘m	*2018 yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida*
Yalpi hududiy mahsulot	13569,4	106,6
Sanoat mahsuloti	6147,9	112,0
Iste’mol tovarlari	3917,5	124,9
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	10133,0	103,0
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	3819,4	159,9
Qurilish ishlari	1945,6	123,1
Yuk aylanmasi *(mln. tn-km)*	571,9	109,4
Yo‘lovchi aylanmasi *(mln.yo‘lovchi-km)*	5740,5	103,3
Chakana tovar aylanmasi	4739,8	113,6
Xizmatlar, jami	4071,4	114,0
Tashqi savdo aylanmasi *(mln. AQSH doll)*	351,9	191,2
Eksport *(mln. AQSH doll.)*	113,7	156,1
Import *(mln. AQSH doll.)*	238,2	2,1 m.
Saldo (+;-) *(mln. AQSH doll.)*	-125,5	x

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2019 yil yanvar-sentabrda ishlab chiqarilgan Yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) hajmi 13569,4mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,6 foizga teng bo‘ldi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida YaHM deflyator indeksi 117,7 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot*(YaHM)*–*milliy hisoblar asosiy ko`rsatkichi bo`lib, muayyan davr mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institusional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha yalpi qo`shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig`indisi orqali hisoblanadi.*

2019 yil yanvar-sentabr oylariuchun YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari

(foiz hisobida)



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘sish sur’atlari YaHM o‘sishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish – 123,1 foiz (umumiy ulushning 6,8 foizi), sanoat – 112,0 foiz (umumiy ulushning 15,3 foizi), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 107,9 foiz (umumiy ulushning5,8 foizi) vaxizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 107,1 foiz (umumiy ulushning 19,3 foizi)ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat Yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

	mlrd.so‘m		*2018 yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida*
	2018 yil yanvar-sentabr	*2019 yil yanvar-sentabr*	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**10 812,7**	**13 569,4**	**106,6**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning Yalpi qo‘shilgan qiymati	10 477,0	12 993,3	106,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	335,7	576,1	110,5
II. Tarmoqlarning Yalpi qo‘shilgan qiymati	**10 477,0**	**12 993,3**	**106,5**
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	**5 361,8**	**6 078,2**	**103,1**
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**1 997,8**	**2 867,5**	**115,6**
sanoat	1 360,1	1 984,9	112,0
qurilish	637,7	882,6	123,1
Xizmatlar	**3 117,4**	**4 047,6**	**106,6**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	610,9	751,2	107,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	708,6	780,5	104,2
boshqa xizmatlar	1 797,9	2 515,9	107,1

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning Yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur’atiga asosiy ta’siri 123,1 foiz–qurilish, 112,0 foiz -sanoat tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 74,3 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2018 yil yanvar-sentabr oylarida 78,6 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi

yanvar-sentabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-sentabr



2019 yil yanvar-sentabr



2019 yilning yanvar-sentabr oylarida YaHM tarkibida Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasining ulushi 46,8 foizni tashkil qildi, bu esa 2018 yilningyanvar-sentabriga nisbatan 4,4 punktga kamdir (51,2 foiz), xizmatlar sohasi 31,1 foizni tashkil qildi va 1,4 punktga ko‘paydi. Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)ni ulushi 22,1 foizni tashkil qilib, 2018 yi lyanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,0 punktga oshdi.

O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati bilan solishtirma makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

(2019 yil yanvar-sentabr)

	O‘zbekiston Respublikasi		*Xorazm viloyati*		*Respublikadagi ulushi % da*	
	mlrd. so‘m	*O‘sish sur’ati, % da*	*mlrd. so‘m*	*O‘sish sur’ati, % da*	*yanvar-sentabr 2018 y.*	*yanvar-sentabr 2019 y.*
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	361858,4	105,7	13569,4	106,6	3,7	3,7
Sanoat	234693,1	107,0	6147,9	112,0	2,6	2,6
Istemol tovarlari	78978,9	115,7	3917,5	124,9	4,6	5,0
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	156667,1	102,4	10133,0	103,0	6,5	6,5
Investitsiyalar	134029,4	146,0	3819,4	159,9	2,7	2,8
Qurilish ishlari	50922,2	119,3	1645,7	123,1	3,7	3,8
Chakana tovar aylanishi	114 954,0	107,0	4739,8	113,6	3,9	4,1
Xizmatlar, jami	135572,0	112,7	4071,4	114,0	3,0	3,0
Eksport *(mln. AQSH doll.)*	13 677,0	145,5	113,7	156,1	0,8	0,8
Import *(mln. AQSH doll.)*	17 968,8	131,5	238,2	2,1 m.	0,8	1,3

2019 yilningyil yanvar-sentabr oylaridaXorazm viloyati Yalpi hududiy mahsuloti 13569,4 mlrd. so‘mni (Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,7 foiz)tashkil qilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 106,6 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6147,9 mlrd.so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 2,6 foizini) tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 112,0 foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 3917,5 mlrd. so‘mlik xalq iste’mol tovarlari (respublikada xalq iste’mol mahsulotlarining 5,0 foizi) ishlab chiqarilib, 2018 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 124,9 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 10133,0 mlrd. so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 6,5 foizi)ni tashkil etib, 2018 yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,0 foizga etdi.2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbaalari hisobidan 3819,4 mlrd.so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, 2018 yilning shu davriga nisbatan 159,9 foizni(respublikadagi ulushi 2,8 foiz) tashkil etdi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida 1645,7 mlrd. so‘mlik(respublikadagi ulushi 3,8 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning shudavriga nisbatan 123,1 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-sentabrida chakana savdo tovar aylanmasi 4739,8 mlrd. so‘mni (respublikadagi ulushi 4,1 foiz), 2018 yilning shu davriga nisbatan 113,6 % ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 4071,4 mlrd. so‘mni, respublikadagi ulushi 3,0 foizni tashkil qildi va 2018 yil yanvar sentabr oylariga nisbatan o‘sish 114,0 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning yanvar-sentabrida 351902,5 ming AQSH dollarini (respublikadagi ulushi 1,1 foizni), o‘sish sur’ati 191,1 foizni, jumladan: eksport – 113664,2 ming AQSH dollarini (respublikadagi ulushi 0,8 foizni), o‘sish sur’ati 156,1 foizni; import – 238238,3 ming AQSH dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), o‘sish sur’ati 2,1 martani tashkil etdi.

II. SANOAT

2019 yil yanvar-sentabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6147,9 mlrd.so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 112,0 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida 3917,5 mlrd. so‘mlik xalq iste’mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 124,9 foizni tashkil etdi.

Jumladan, 901,5 mlrd. so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 2993,0 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2018 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mos ravishda 106,3 foiz va 132,3 foiz) ishlab chiqarildi.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 24,6 mlrd. so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi yanvar-sentabr holatiga
(jami sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish xajmiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-sentabr



2019 yil yanvar-sentabr



- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish
- Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko‘proq qayta ishlash sanoatiga to‘g‘ri kelib, uning ulushi 94,9361 foizni tashkil qildi. (2018 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 121,2 foiz). Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,0066 foizni (ishlab chiqarish indeksi 108,3 foiz), elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash ulushi 4,4058 foizni (ishlab chiqarish indeksi134,4 foiz), suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,6515 foizni (ishlab chiqarish indeksi 111,9 foiz) tashkil qiladi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o‘sish sur’atlari (*foizda*)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o‘sish darajasi yuqori bo‘lgan Xazorasp tumani (2018 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 146,4 foiz), Urganch tumani (2018 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 114,4 foiz), Urganch shaxri (2018 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 114,3 foiz), Shovot tumani (109,2 foiz), Xiva tumani (106,4 foiz), Xonqa tumani (104,3 foiz), Yangibozor tumani (104,0 foiz), Gurlan tumani (102,9 foiz), Bog‘ot tumani (101,5 foiz), Xiva shaxri(101,2 foiz) ga o‘sganini va Qo‘shko‘pir tumani (97,7 foiz), Yangiariq tumani (97,1 foiz)ga past o‘sishga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to‘g‘risida (*mlrd.so‘mda)*



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha yuqori bo‘lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Shovot tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)

Maxsulot turlari	*2019 yil yanvar-sentabr*	*2018 yil yanvar-sentabr*	*O‘sish sur’ati, foiz hisobida*
Gidroelektrstansiyalari ishlab chikargan elektr energiyasi – mln.kVts	446,3	126,5	3,5m
Issiklik energiyasi – mingGkal.	72,1	87,6	82,3
Engil avtomobillari - dona	36836,0	23268,0	158,3
Yuk avtomobillari – dona	5255,0	5351,0	98,2
Arok – ming litr	793,0	1124,0	70,6
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashkari – ming litr	16,2	14,1	114,9
Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna	59367,8	575777,1	62,1
Makaron maxsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan maxsulotlar– tonna	0,0	119,3	0,0

Maxsulot turlari	*2019 yil yanvar-sentabr*	*2018 yil yanvar-sentabr*	*O‘sish sur’ati, foiz hisobida*
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni,og‘irligi 600 gr. (buxanka) – tonna	1229,1	1644,4	74,7
Milliy non (yopgan non) – tonna	629,8	135,8	4,6 m
Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna	10566,2	12915,6	81,8
Xo‘jalik sovuni – tonna	4670,0	6118,0	76,3
Paxta tolasi – tonna	38497,8	49422,0	77,9
Paxta chigiti- tonna	60729,1	76264,0	79,6
Paxta tiviti (lint) - tonna	3092,2	4025,0	76,8

Viloyatda yirik korxonalar tomonidan faoliyat turlari bo‘yicha asosiy turdagi mahsulot ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan aroq 70,6 foiz, paxta tolasi 77,9 foiz, paxta chigiti 79,6 foiz, paxta tiviti (lint) 76,8 foizga kamayganligini kuzatildi.

Shahar va tumanlarning viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo‘lgan Xazorasp tumani 46,5 foiz Urganch shahri 23,6 foiz, Xonqa tumani 5,6 foiz, Shovot tumani 4,2, Gurlan tumani 4,0 foiz va Bog‘ot tumani 3,0 foiz, Yangibozor tumani 3,0 foiz,Yangiariq tumani 2,1 foiz, foizni va eng past bo‘lgan, Xiva tumani 1,6 foiz hamda 1,4 foiz Xiva shahriga to‘g‘ri keladi.

2019 yil yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish

	mlrd. so‘m	*Ishlab chiqarish indeksi, foiz hisobida*
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	**6147,9**	**112,0**
Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarniishlash	**0,4**	**110,4**
ulardan:		
Tog‘- kon sanoatigabog‘liq boshqa faoliyat	0,4	110,4
Qayta ishlash sanoati	**5836,6**	**110,6**
undan:		
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	877,3	97,1
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	194,6	113,7
To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1152,6	89,0
Kiyim ishlab chiqarish	21,0	97,4
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	7,0	101,2
YOg‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chikarish	7,0	128,4
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	14,7	98,0
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,7	93,7
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,3	114,4
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	19,6	124,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	5,1	74,1
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	74,1	101,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	265,0	109,8
Metallurgiya sanoati	25,6	157,5

	mlrd. so‘m	*Ishlab chiqarish indeksi, foiz hisobida*
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	123,4	143,2
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	94,5
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	26,4	115,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	304,5	195,0
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	2582,2	141,5
Mebel ishlab chiqarish	24,7	80,4
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	93,3	99,5
Mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	16,8	95,5
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	270,9	128,6
Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	40,0	112,0
Iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish	**3917,5**	**124,9**
shu jumladan:		
oziq-ovqat tovarlari	901,5	106,3
nooziq-ovqat tovarlari	2993,0	132,3

Faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarish 2019 yil yanvar-sentabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 89,0 foiz, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish 98,0 foiz, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish 74,1 foiz, mebel ishlab chiqarish80,4 foiz, mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish 95,5 foiz, kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish 94,5 foizga kamaygan.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish xajmiga nisbatan foizda)



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 27,8 foizdan 23,6 foizga kamayganligi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish esa 72,2 foizdan 76,4 foizga ko'payganligi kuzatildi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
(mlrd. so'm)



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, kichik biznes sub'ektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 3917,5 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 124,9 foizni tashkil etdi.

Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 63,7 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati (foizda)



Shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 148,1 foiz, Yangibozor tumani 109,2 foiz, Xiva tumani 108,6 foizga o'sgan.

Shuningdek, jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushida 2018 yil yanvar-sentabr oylarida Xazorasp tumani 50,0 foizdan 2019 yilda 59,3 foizga oshgan bo'lsa, Urganch shahri 19,7 foizdan 15,8 foizga, Xonqa tumani 5,2 foizdan 4,4 foizga va Gurlan tumani 3,8 foizdan 3,1 foizga kamaygan.

Sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)

	Sanoat mahsulotlari, mlrd.so'mda [1)]	*Ishlab chiqarish indeksi, % da*	*Iste'mol tovarlari, mlrd.sumda*[1)]	*2018 yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, % da*
Viloyat bo'yicha jami	**6147,9**	**112,0**	**3917,5**	**124,9**
Shaharlar:				
Urganch sh.	1449,9	114,3	618,3	100,2
Xiva sh.	87,1	101,2	85,6	108,2
tumanlar:				
Bog'ot	186,4	101,5	112,0	103,0
Gurlan	243,2	102,9	121,7	103,4
Qo'shko'pir	103,7	97,7	56,6	103,9
Urganch	202,0	114,4	141,5	106,5
Xazorasp	2867,9	146,4	2321,6	148,1
Xonqa	342,3	104,3	173,6	105,7
Xiva	95,9	106,4	88,9	108,6
Shovot	256,1	109,2	77,7	77,9
Yangiariq	131,2	97,1	83,5	106,1
Yangibozor	182,2	104,0	36,4	109,2

[1)] *Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda*

Shaxar va tumanlar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming so‘mda

(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo‘yicha 3330,4 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 119,5 foizni tashkil qildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-sentabr oylarida Xazorasp tumani 7009,6 ming so‘mdan 2019 yil yanvar-sentabrida 11705,7 ming so‘mga, Urganch shahri 7568,8 ming so‘mdan10181,7 ming so‘mga, Xonqa tumani 1445,1 ming so‘mdan 1864,2 ming so‘mga oshganligi kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so‘mda

(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2122,1ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 122,8 foizni tashkil qildi. 2018 yil yanvar-sentabroylarida Xazorasp tumani 6509,9 ming so'mdan 2019 yilda 9475,9 ming so'mga,Gurlan tumani817,5 ming so'mdan 832,3 ming so'mga, Urganch tumani 694,5 ming so'mdan 725,1 ming so'mga, Bog'ot tumani 684,1 ming so'mdan 691,7 ming so'mga o'sgani kuzatildi.

Shaxar va tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

(2019 yil yanvar-sentabr va 2018 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznesning ulushi 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 35,6 foizni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori bo'lgan Xiva tumani 99,5 foiz, Urganch tumani 79,0 foiz, Yangibozor tumani 77,1 foiz, Qo'shko'pir tumani 63,3 foiz, Urganch shahri 57,8 foiz bo'lib, eng kam 5,1 foiziXazorasp tumaniga to'g'ri keladi.

III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

2019 yilning yanvar-sentabrida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 10133,0 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 103,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 9964,8 mlrd. so‘mni (102,9 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,05 mlrd. so‘mni (100,0 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 87,1 mlrd. so‘mni (101,9 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 81,0 mlrd. so‘mni (123,3 foiz) tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2019 yil yanvar-sentabrida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 79,1 foizini tashkil qildi(2018 yil yanvar-sentabrida – 80,3 foiz), fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 20,1 foizi ishlab chiqarilgan (2018 yilda 18,8 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 0,8 foizi ishlab chiqilgan (2018 yil yanvar-sentabrida – 0,9 foiz),

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari(xizmatlar)ning hajmi



Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulot (xizmat) larini hududlar kesimida taqsimlanishi

(foiz hisobida)



Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining xududlar kesimida xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi



Dehqonchilik. 2019 yilning yanvar-sentabr ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 3936,0 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 105,8 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 1768,0 mlrd.so‘mni (110,5 foiz), dehqon (shahsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 2157,5 mlrd. so‘mni (103,0 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 10,5 mlrd. so‘mni (76,0 foiz) tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tumanlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Hosil yig‘imi. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 320696 tonna don ekinlari (2018 yilning shu davriga nisbatan 104,5 foiz), 97381 tonna kartoshka (100,2 foiz), 369387 tonna sabzavot (105,6 foiz), 95063 tonna poliz (107,8 foiz), 119007 tonna meva (105,6 foiz), 30661 tonna uzum (106,1 foiz) yig‘ib olindi.

Chorvachilik. 2019 yil yanvar-sentabr oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 5951,5 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 100,9 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 218,1 mlrd. so‘mni (108,8 foiz), dehqon (shahsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 5661,3 mlrd.so‘mni (100,6 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 72,1 mlrd. so‘mni (98,2 foiz) tashkil qildi.

Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jaliklari toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

(foiz xisobida)



2019 yilning 1 oktyabr holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,3 foizni (jami 858,6 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 101,4 foizni (334,6 ming bosh), qo‘y va echkilar 101,4 foizni (418,1 ming bosh), otlar 92,4 foizni (4,9 ming bosh), parrandalar 109,1 foizni (5724,6 ming bosh) tashkil qildi.

2019 yil 1 oktyabr holatiga chorva mollari bosh sonlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,4 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,7 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 74,2 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2019 yil 1 oktyabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	*o‘sish sur’ati, %*
Yirik shoxli qoramol	**858,6**	**101,3**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	50,8	95,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	802,2	101,9
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	5,6	87,5
***ulardan:* sigirlar**	**334,6**	**101,4**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	17,8	95,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	315,3	101,8
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1,5	88,2
Qo‘y va echkilar	**418,1**	**101,4**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	44,2	110,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	371,9	100,4
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2	117,6
Otlar	**4,9**	**92,4**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklari	0,5	100,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	4,4	92,7
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar		
Parrandalar	**5724,6**	**109,1**
shu jumladan:		

	ming bosh	*o'sish sur'ati, %*
Fermer xo'jaliklarida	562,7	96,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	3577,5	102,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1584,4	135,4

2019 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	miqdori	*o'sish sur'ati, %*
Go'sht (tirik vaznda), *ming t* .	**122,4**	**100,4**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	3,5	110,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	118,2	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	0,7	83,3
Sut, *ming t* .	**847,1**	**101,2**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	27,3	96,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	817,5	101,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2,3	104,7
Tuxum, *mln. dona*	**376,6**	**107,4**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	23,0	104,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	256,2	104,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	97,4	118,1
Jun,*t* .	**1054**	**103,6**
shu jumladan:		
Fermer xo'jaliklarida	57	103,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	990	103,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	7	233,3

	miqdori	*o‘sish sur’ati, %*
Qorako‘l teri, *dona*	**6776**	**107,0**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	344	103,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	6432	107,2
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	-	-
Pilla, t	**1875,3**	**124,5**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	1669,5	180,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	-	-
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	205,8	35,5
Asal, t	**925**	**102,8**
shu jumladan:		
Fermer xo‘jaliklarida	151	101,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	767	102,7
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	7	175,0

Fermer xo‘jaliklari. 2019 yilning yanvar-sentabrda fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 1986,2 mlrd. so‘mni yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 110,3 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 20,1 foizni tashkil etdi.

Fermer xo‘jaliklarida etishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi *(foizda)*



2019 yilning 1 oktyabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 50,8 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 17,8 ming bosh sigir, 44,2 ming bosh qo‘y va echkilar, 562,7 ming bosh parrandalar mavjud bo‘lib, 2018 yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 95,0 foizni, shu jumladan sigirlar 95,2 foizni, qo‘y va echkilar 110,2 foizni, parrandalar 96,1 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari

	yanvar-sentabr				*2018 yanvar-sentabrga nisbatan foiz hisobida*
	2018 yil		*2019 yil*		
	tonna	*ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	*tonna*	*ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz*	
Jami don	175773	57,3	205533	64,1	116,9
shu jumladan:					
boshoqli don	146173	60,5	170327	66,8	116,5
shundan:					
Bug‘doy	144740	60,4	170079	66,7	117,5
Kartoshka	8900	9,2	9030	9,3	101,5
Sabzavot	40980	11,7	37541	10,2	91,6
Poliz	36300	41,1	39225	41,3	108,1
Meva	37640	33,4	39136	32,9	104,0
Uzum	6200	21,5	6692	21,8	107,9
Go‘sht, *tirik vaznda*	3184	2,6	3511	2,9	110,3
Sut	28352	3,4	27276	3,2	96,2
Tuxum, *mln. dona*	22,0	6,3	23,0	6,1	104,8
Jun, *tonna*	55	5,4	57	5,4	103,6
Qorako‘l, *dona*	333	5,3	344	5,1	103,3
Pilla, *tonna*	926,2	61,5	1669,5	89,0	180,3
Asal, *tonna*	149	16,6	151	16,3	101,3

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Jami don *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha **320696**



Kartoshka *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha **97381**



Sabzavotlar *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha
369387



Poliz *(tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha **95063**



Meva *(tonna)*
Jami viloyat bo'yicha
119007

Uzum *(tonna)*
Jami viloyat
bo'yicha **30661**





2019 yil 1 oktyabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

Yirik shoxli qoramollar*(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha **858647**



shu jumladan sigirlar*(bosh)*
Jami viloyat bo'yicha **334608**



Qo‘ylar va echkilar *(bosh)*
Jami viloyat bo‘yicha **418088**



Parrandalar *(ming bosh)*
Jami viloyat bo‘yicha **5724,6**



2019 yilning yanvar-sentabrida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Go‘sht *(ming tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha **122,4**



Sut *(ming tonna)*
Jami viloyat bo‘yicha **847,1**



Tuxum *(mln. dona)*
Jami viloyat
bo'yicha **376,6**



Jun *(tonna)*
Jami viloyat
bo'yicha **1054**



IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbaalari hisobidan 3819,4 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 443,02 mln. AQSH doll.) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib 2018 yilning shu davriga nisbatan 159,9 foizni, shundan xorijiy investitsiyalar 971,8 mlrd. so‘mni (jamiga nisbatan ulushi 25,4 foiz) tashkil etdi.

2019 yil yanvar - sentyabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sish sur'atlari



2019 yilning yanvar–sentabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘pi, ya’ni 51,3 foizi viloyatning 4 ta tumani hissasiga, jumladan Urganch shahri 23,8 foiz, Bog‘ot tumani 10,8 foiz, Yangiariq tumani 8,5 foiz va Urganch tumani 8,2 foizi to‘g‘ri keladi.

Ayrim tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. Jumladan o‘tgan yilning shu davriga nisbatan Yangiariq tumani 240,9 foiz, Xiva shahri 269,4 foiz, Xiva tumani 287,4 foiz Bog‘ot tumani 215,3 foiz va Xazorasp tumani 197,5 foiz o‘sish kuzatildi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (foiz)



2019 yilning yanvar – sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar xajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Urganch shahri 6373,9 ming so‘m (100,5 foiz),

Yangiariq tumani 2849,4 ming so‘m (236,9 foiz) va Bog‘ot tumani 2538,0 ming so‘m (211,4 foiz) qayd qilindi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
(2019 yil yanvar - sentabr oylarida)

	mlrd.so‘m	*o‘sish sur’ati, %*	*yakunga nisbatan foiz*
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	**3819,4**	**159,9**	**100,0**
shu jumladan:			
Markazlashgan investitsiyalar:	**774,7**	**120,8**	**20,3**
byudjet mablag‘lari	432,4	147,0	11,3
Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish	17,2	212,4	0,5
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	48,2	339,5	1,3
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	195,8	165,4	5,1
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	81,1	39,3	2,1
Markazlashmagan investitsiyalar:	**3044,7**	**174,3**	**79,7**
korxonalarning o‘z mablag‘lari	594,9	121,3	15,6
aholi mablag‘lari	859,3	132,4	22,5
xorijiy investitsiya va kreditlar	890,6	2131,3	23,3
shundan:			
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya	880,5	2267,6	23,1
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	699,9	123,1	18,3

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

(2019 yil yanvar-sentabr)

	jami	*Davlat*	*Nodavlat*
Jami, *mlrd. so'm*	**3819,4**	**679,2**	**3140,2**
shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan foiz ko'rinishida			
qurilish-montaj ishlari	1981,2	571,4	1409,8
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlar	1512,8	91,2	1421,6
Boshqa harajatlar	325,4	16,6	308,8

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Viloyat bo'yicha qurilish – montaj ishlarining ulushi 51,9 foizni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar 39,6 foizni hamda boshqa xarajatlar ulushi 8,5 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari

(yanvar-sentabr holatiga)



Viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari 2019 yil yanvar-sentabr oylarida mos ravishda 20,3 foiz va 79,7 foizlarni tashkil qilib, ushbu ko'rsatkichlarning ulushlari o'tgan yilning shu davrida 27,0 foiz va 73,0 foizlarni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari (ulushi foizda)



2018 yilning shu davri bilan solishtirganda O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar ulushi 0,1 foiz punktga o‘sgan, mos ravishda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ulushi 0,2 foiz punktga ko‘paygan bo‘lsa, Respublika byudjeti mablag‘larining ulushi 1,1 foizli punktga kamaygan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari
(ulushi, *foizda)*



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar mlrd. so‘m	SHu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha: (mlrd. so‘m)						
		Respublika byudjeti	Moliya vazirligi huzuridagi Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi i	Korxona va aholi mablag‘i	Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish
Xorazm viloyati	**3819,4**	**432,4**	**48,2**	**1454,2**	**699,9**	**971,8**	**195,8**	**17,2**
Shahar va tumanlar								
Urganch sh.	907,6	116,8	0,3	382,7	157,4	233,7	-	16,7
Xiva sh.	200,5	14,2	-	69,1	13,2	104	-	-
Bog‘ot	410,9	18,7	46,7	88,4	96,9	43,7	116,5	-
Gurlan	209,3	31	0,4	91,8	30	56,1	-	-
Qo‘shko‘pir	232,4	30,3	0,1	86	43,8	72,2	-	-
Urganch	315,0	50,4	0,1	132,3	96,9	35,3	-	-
Xazorasp	270,5	40,7	0,2	107,3	36,3	86	-	-
Xonqa	272,1	28	0,2	111,2	61,1	71,6	-	-
Xiva	246,5	41	0,1	68,1	33,7	103,6	-	-
Shovot	233,0	17,1	0,04	102,8	48,5	64,1	-	0,5
Yangiariq	325,7	19,5	0,02	92,9	52,9	81,1	79,3	-
Yangibozor	195,9	24,7	0,04	121,6	29,2	20,4	-	-

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2019 yilning yanvar – sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar xajmi

	Mlrd. so‘m	*Jamiga nisbatan foizda*
Jami:	**3819,4**	**100,0**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	672,1	17,6
Tog‘- kon sanoati	0,1	0,0
Ishlab chiqarish sanoati	976,0	25,6
Elektr energiyasi , gaz va bug‘konditsiyalangan xavo	112,4	2,9
Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlash	133,9	3,5
Qurilish	190,7	5,0
Ulgurji va Chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta’mirlash	209,3	5,5
Tashish va saqlash	113,1	3,0
Ovqatlanish va yashash bo‘yicha xizmatlar	55,2	1,4
Axborot va aloqa	28,2	0,7
Moliya va sug‘urta faoliyati	25,7	0,7
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	8,3	0,2
Ta’lim	207,3	5,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	88,2	2,3
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	109,9	2,9
Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	631,5	16,5
Boshqa faoliyat turlari	257,5	6,7

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning59,7foizidan ortig‘i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo‘naltirildi: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (17,6foiz), ishlab chiqarish sanoati (25,6foiz) va jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joyqurilishiga investitsiyalar (16,5 foiz).

2019 yilning yanvar – sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi



Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2019 yilning yanvar–sentabr oylarida 971,8 mlrd.so‘m (dollar ekvivalentida 112,7 mln.AQSH doll) yoki o‘tgan shu davriga nisbatan 391,6 foiz asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Urganch shahrida (24,0 %), Xiva shahrida (10,7 %), Xiva tumanida 10,7 % kuzatildi.

Xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish, kreditlarni qo‘shgan holda

	Xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, mlrd. so‘m		*Xorijiy investitsiyalar, nisbatan % da*	
	jami	*shu jumladan, kreditlar*	*jamiga*	*asosiy kapitalga investitsiyalar*
Xorazm viloyati	**971,8**	**91,3**	**100,0**	**25,4**
Shahar va tumanlar:				
Urganch sh.	233,7	81,1	24,0	25,7
Xiva sh.	104	-	10,7	51,9
Bog‘ot	43,7	-	4,5	10,6
Gurlan	56,1	-	5,8	26,8
Qo‘shko‘pir	72,2	-	7,4	31,1
Urganch	35,3	-	3,6	11,2
Xazorasp	86	10,2	8,8	31,8
Xonqa	71,6	-	7,4	26,3
Xiva	103,6	-	10,7	42,0
Shovot	64,1	-	6,6	27,5
Yangiariq	81,1	-	8,3	24,9
Yangibozor	20,4	-	2,1	10,5

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilganinvestitsiyalardagi ulushi 25,4 foizni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o‘zlashtirish (mlrd. so‘m)



Jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarni 8,4 foizi, ya’ni 81,1 mlrd.so‘m (9,4 mln.AQSH doll)O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar, 91,6 foizi xorijiy investitsiyalar 890,6 mlrd. so‘m (103,3 mln.AQSH doll.), shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar 880,5 mlrd. so‘m(102,1 mln. AQSH doll.)ni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 517,5 ming kv.m. bo‘lgan 2622 ta (2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 92,1 foiz) shu jumladan qishloq joylarida 420,6 ming kv.m.(90,4 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi. Turar joy qurilishiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 631,5 mlrd.so‘mni yoki jami investitsiyalardagi ulushi 16,5 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar – sentabr oylarida ishga tushirilgan turar joylar

	Barcha moliyalashtirish hisobidan:			
	Ishga tushirildi		*Ulardan yakka tartibdagi turar joylar*	
	Ming kv.metr	*2018 yil mos davriga nisbatan foizda*	*Ming kv.metr*	*2018 yil mos davriga nisbatan foizda*
Xorazm viloyati	517,5	92,1	447,8	83,5
Shahar va tumanlar				
Urganch sh.	75,0	109,6	64,4	94,1
Xiva sh.	14,2	53,2	14,2	53,0
Bog‘ot	28,8	53,8	26,3	51,3
Gurlan	52,0	79,4	47,0	74,2
Qo‘shko‘pir	56,3	91,4	46,4	78,3
Urganch	64,9	228,0	48,3	184,2
Xazorasp	23,8	655,7	19,7	4951,1
Xonqa	19,2	26,2	12,7	18,1
Xiva	23,0	100,9	17,5	89,2
Shovot	34,2	53,6	30,8	50,0
Yangiariq	61,4	185,2	60,2	193,9
Yangibozor	64,8	105,8	60,3	103,6

Yangi qurilish va rekonsruksiya hisobiga turar joylar va ijtimoiy obektlarni ishga tushirish

	Barcha moliyalashtirish hisobidan:			
	Ishga tushirildi		*2018 yilning mos davriga nisbatan foizda*	
	jami	*shu jumladan qishloq joylardi*	*jami*	*shu jumladan qishloq joylardi*
Turar joylar umumiy maydoni ming kv.metr	517,5	420,6	92,1	90,4
ulardan:				
yakka tartibdagi turar joylar	447,8	361,4	83,5	82,2
Namunaviy loyihalar asosida qurilgan yakka tartibdagi turar joylar	69,7	59,2	2,7 m.	2,3 m.
Poliklinikalar(QVPlarni qo‘shgan holda), qatnov	300	100	-	-
Umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, o‘quvchi o‘rni	9675	6296	-	-
Suv tarmog‘i, km	334,7	313,5	3,4 m.	3,3 m.
Gaz tarmog‘i, km	-	-	-	-

Kommunal qurilish sohasida 334,7 km uzunlikdagi ichimlik suvi(jumladan qishloq joylarda 313,5 km) ishga tushirildi, bu 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan mos ravishda 3,4martani tashkil qildi.

Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga jami mablag‘lari hisobiga 55755,5 mln.so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida investitsiyalar o‘zlashtirilmadi.

Qurilish ishlari

2019 yil yanvar-sentabr oylarida 1945,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 123,1 foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari o‘sish sur’ati



Qurilish ishlari bo‘yicha yuqori o‘sish sur’atlari quyidagi Shahar va tumanlarda: Yangiariq tumani 159,2 foiz, Xazorasp tumani 144,1 foiz va Yangibozor tumani 134,9 foiz o‘sish kuzatildi.

Axoli jon boshiga qurilish ishlari xajmi(ming so‘mda)



Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi

	yanvar–sentabr	
	2018 y.	*2019 y.*
Qurilish ishlari, *mlrd. so‘m*	**1412,3**	**1945,6**
shu jumladan:		
davlat	114,2	136,1
nodavlat	1298,1	1809,5

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 1809,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 93,0 foizni (2018 yil yanvar-sentabriga nisbatan o‘sish sur’ati 124,5 foizni) tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari xajmi (*mlrd. so‘m*)



Qurilish ishlari umumiy hajmining 80,2 foizi binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 13,5 foizi fuqarolik qurilishi ob’ektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 6,3 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. SHu jumladan umumiyhajmdan 82,5 foizi yangi qurilish xajmiga to‘g‘ri keladi.

V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2019 yilning yanvar-sentabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik Tadbirkorlik (biznes) sub’ektlarining soni 15821 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxona va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 3867 ta, Xiva shahrida 1593 ta, Xiva tumanida 1428 ta, Urganch tumanida 1815 ta, Xonqa tumanida 1200 ta, Yangiariq tumanida 923 ta, Xazorasp tumanida 1067 ta, Gurlan tumanida 923 ta, Qo‘shko‘pir tumanida 925 ta, Bog‘ot tumanida 746 ta, Shovot tumanida 733 ta va Yangibozor tumanida 601 tani tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub’ektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2019 yil yanvar–sentabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes sub’ektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan sub’ektlarning 36,2 foizi), sanoat tarmog‘ida (20,8 foiz), qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (13,3 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (8,5 foiz) tashkil etilgan.

2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng ko‘p ko‘rsatkich Urganch shahrida 24,8 birlikda, Xiva shaxrida 15,5 birlikda, Yangiariq tumanida 12,6 birlikda, Urganch tumanida 12,3 birlikda,Xiva tumanida 11,2 birlikdaYangibozor tumanida 10,7 birlikda Gurlan tumanida 9,3 birlikda bo‘lib, o‘rtacha ko‘rsatkich 6-8 birlik oralig‘ida Xazorasp, Bog‘ot, Ko‘shko‘pir, Xonqa, Shovot tumanlarida ushbu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda).



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2019 yil 1 oktyabr holatiga ro'yxatga olingan	*2019 yil yanvar-sentabrida*	
		tashkil topdi	*tugatildi*
Viloyat bo'yicha:	**15821**	**3944**	**722**
Shaharlar:			
Urganch	3867	752	107
Xiva	1593	362	99
tumanlar:			
Bog'ot	746	215	29
Gurlan	923	305	48
Qo'shko'pir	925	262	24
Urganch	1815	530	77
Xazorasp	1067	314	51
Xonqa	1200	300	29
Xiva	1428	250	92
Shovot	733	249	52
Yangiariq	923	208	84
Yangibozor	601	197	30

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari

2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda ro‘yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlari soni 3944 tani tashkil topgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich Urganch shahrida 752 ta, Urganch tumanida 530 ta,Xiva shaxrida 362 ta, Honqa tumanida 300 ta,Qo‘shko‘pirtumanida 262 ta,Xazorasp tumanida 314 ta, Xiva tumanida 250 ta, Shovot tumanida 249 ta, Yangiariq tumanida 208 ta,Gurlan tumanida 305 ta,Bog‘ot tumanida 215 ta va Yangibozor tumanida 197 tani tashkil qildi.

2019 yil yanvar-sentabrda Yalpi hududiy mahsulotning 74,3 foizi (2018 yil yanvar-sentabrda 78,6 foiz) kichik biznes sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2019 yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2187,2 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 35,6 foizi) yoki 2018 yilningyanvar-sentabrga nisbatan o‘sish sur’ati 115,2 foizni tashkil qildi;

- 9854,3 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o‘sish sur’ati 102,7 foizni (qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari Yalpi mahsulotining 99,7 foizi) tashkil qildi;

- 2615,6 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 68,5 foizi) o‘zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-sentabrga nisbatan 2,1 martani tashkil qildi;

- 1821,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 93,6 foizi) bajarildi va 2018 yilning yanvar-sentabrga nisbatan 125,8 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti Yuk aylanmasining 7,9 foizga (viloyat jami avtomobil transporti Yuk aylanmasining 89,9 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 2,9 foizga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 96,3 foizi) ko‘payishi ta’minlandi;

-Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 76,0 foizi yoki 3603,2 mlrd. so‘mi (o‘sish 105,0 foiz) va xizmatlar umumiy hajmining, mos ravishda 65,3 foizi yoki 2656,9 mlrd. so‘mi (o‘sish 107,0 foiz) shakllantirildi;

- 104,0 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 91,5 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 217,3 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 91,2 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmidagi xususiy tadbirkorlikning (fuqarolar mulki) ulushi

(2019 yilning yanvar-sentabr)

	Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm	*Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida*
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9854,3	99,7
Sanoat	2187,2	35,6
Qurilish	1821,6	93,6
Chakana savdo	3603,2	76,0
Yuk tashish, *mlntn.*	26,7	94,0
Yo'lovchi tashish, *mln.kishi*	281,8	94,2
Eksport, *mln. AQSH doll.*	104,0	91,5
Import, *mln. AQSH doll.*	217,3	91,2

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(foizda)



VI. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 85,3 mlrd. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

2018 yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 101,4 % ko'paygan.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari[1)]

	Foyda, zarar (-), mlrd.so'm	*2018 yilning yanvar-avgustga nisbatan %da*
Jami	**85,3**	**101,4**
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	-	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	57,1	120,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	-16,9	-
Qurilish	2,6	197
Savdo	25,8	63,5
Tashish va saqlash	9,1	-
YAshash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0,2	-
Axborot va aloqa	0,1	14177,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	0,01	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	5,2	80,9
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	0,7	260,3
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	0,04	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-
Boshqalar	1,4	116,7

[1)]*Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

	Foyda, zarar (-), mlrd.so'm	*2018 yilning yanvar-avgustga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**85,3**	**101,4**
Urganch Shahar	32	66,3
Xiva Shahar	0,03	11,0
tumanlar;		
Bogot	1,3	188,1
Gurlan	0,9	102,8
Qo'shqo'pir	2,3	102,9
Urganch	11,8	122,1
Xazorasp	2,4	32,2
Xonqa	7,9	376,1
Xiva	0,6	90,2
Shovot	22,1	206,4
Yangiariq	1,8	155,2
Yangibozor	2,2	1509,5

Tumanlar kesimida foydaning asosiy qismi Urganch shahri -32 mlrd. so'm (jami foydaning 66,3 %), Shovot tumani – 22,1 mlrd. so'm (206,4 %), Urganch tumani – 11,8 mlrd. so'm (122,1%) va Xonqa tumani -7,9 mlrd. so'm (376,1 %)ga to'g'ri keladi.

Zararlar. 2019 yilning yanvar-avgust oylarida 5 ta korxona va tashkilotlar 18,5 mlrd. so'm zararga yo'l qo'ydi.

Zararning asosiy qismi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 17,1mlrd. so'm, Tashish va saqlash 1,3 mlrd. so'm, Ulgurji va Chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash 3,2 mld.so'mto'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-avgustida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	*Zarar summasi*	
		mln.so‘m	*jamiga nisbatan % da*
Jami	**5**	**18465,4**	**100,0**
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	2	17081,6	92,5
Tashish va saqlash	1	1350,9	7,4
Ulgurji va Chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash	2	32,9	0,1



2019 yilning yanvar-avgustida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	*Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, % da*	*Zarar summasi mln.so‘m*
Xorazm viloyati	**5**	**100,0**	**18465,4**
Urganch Shahar	5	100,0	18465,4

2019 yil 1 sentabr holatigazarar ko‘rgan korxona va tashkilotlari Urganch shaxriga to‘g‘ri kelmoqda.

Korxona va tashkilotlarning debitorlik qarzdorligi holati[1)]

2019 yil 1 sentabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy xajmi 610,9 mlrd.so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan 8,4 mlrd.so‘m yoki jami qarzdorlikning 1,3 % ni tashkil qildi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2018 yilning 1 sentabriga nisbatan solishtirganimizda 89,2% oshgan, jami debitor qarzdorlikdagi ulushi 1492,6% kamaygan.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yakuniy debitor qarzdorlik natijalari

	Debitor qarzdorlik (-), mlrd.so‘m	*2018 yilning yanvar-avgustiga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**610,9**	**151,5**
Urganch Shahar	443,8	137,6
Xiva Shahar	1,8	93,6
tumanlar;		
Bog‘ot	2,9	82,9
Gurlan	2,2	385,9
Qo‘shqo‘pir	3,7	176,9
Urganch	38,1	95,5
Xazorasp	14,9	976,3
Xonqa	34,4	799,4
Xiva	12,2	490,0
Shovot	49,2	486,5
Yangiariq	3,6	307,0
Yangibozor	4,1	31,8

Tumanlar kesimida debitor qarzdorlik asosiy qismi Urganch shahri - 443,8 mlrd. so‘m (jami debitor qarzdorlikning 137,6 %), Shovot tumani – 49,2 mlrd. so‘m (486,5%) va Urganch tumani – 38,1 mlrd. so‘m (95,1%)ga to‘g‘ri keladi.

Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLARNING FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Barchamizga ma’lumki, Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibini tubdan takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllaridan foydalanishni jadal rag‘batlantirilmoqda.

Bugungi kunda ushbu borada qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi ma’qullanib, ushbu chora-tadbirlarda tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib xayotga tadbiq qilinmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar va jamiyatimizda ro‘y berayotgan muhim o‘zgarishlar tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan o‘z faoliyatlarini mustaqil boshlashiga va biznesini rivojlantirishiga muhim poydevor bo‘ladi.

Bu o‘z navbatida, tadbirkorlarning va mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiyalarni yanada ko‘payishiga va ayni damda qo‘shimcha ish o‘rinlarini vujudga kelishiga, fuqarolarning turmush darajasini yanada oshirishiga xizmat qiladi.

Izoh tariqasida:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-sonli qaroriga muvofiq tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tomonidan taqdim etilgan bildirishnomaga asosan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra 2019 yilning 1 oktyabr holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 19122 taga etdi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 24,0 % oshgan va faoliyat ko‘rsatayotganlari soni esa 17994 tani tashkil qildi bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3326 taga yoki 22,6 % ga oshgan.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (24,1 %), Urganch tumani (10,9 %), Xiva shahri (9,2 %) , Xiva tumani (8,8 %), hissalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

(2019 yilning 1 oktyabr holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		*Faoliyat ko‘rsatayotgan*	
	birlik	*jamiga nisbatan % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**19122**	**100**	**19994**	**100**
Urganch sh.	4609	24,1	4238	23,4
Xiva sh.	1726	9,2	1550	8,7
tumanlar:				
Bog‘ot tumani	978	5,1	920	5,1
Gurlan tumani	1158	6,0	1129	6,3
Qo‘shko‘pir tumani	1170	6,1	1122	6,2
Urganch tumani	2091	10,9	1979	11,0
Xazorasp tumani	1395	7,4	1350	7,5
Xonqa tumani	1459	7,7	1431	8,0
Xiva tumani	1654	8,8	1509	8,4
Shovot tumani	975	5,1	911	5,1
Yangiariq tumani	1131	6,0	1099	6,1
Yangibozor tumani	776	3,7	756	4,2

Ma'lumot tariqasida:

Oxirgi 5 yillikka e'tibor beradigan bo‘lsak, viloyatimizda2014 yillarda davlat ro‘yxatidan o‘tgan tadbirkorlik sub'ektlar soni 10867 tani (fermer va dexqon xo‘jaliklarsiz)tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kun holatiga 19122 mingta bo‘lib 8255 taga ko‘payganini kuzatish mumkin.

Ro‘yxatdan o‘tgan sub’ektlarning hududlar bo‘yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 26,3 %), sanoat (16,5 %), qurilish (9,6 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (8,7%) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
(2019 yilning 1oktyabr holatiga)

	Ro‘yxatga olingan		*Faoliyat ko‘rsatayotgan*	
	birlik	*jamiga nisbatan % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan % da*
Jami	**19122**	**100**	**17994**	**100**
shu jumladan:				
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	1667	8,7	1569	8,7
sanoat	3162	16,5	2967	16,5
qurilish	1834	9,6	1702	9,5
savdo	5038	26,3	4759	26,4
tashish va saqlash	690	3,6	647	3,6
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1251	6,5	1170	6,5
axborot va aloqa	251	1,3	231	1,3
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	419	2,2	404	2,2
boshqa turlari	4810	25,3	4545	25,3

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko‘rsatayotgan sub’ektlarning ulushi 94,1 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 5,9 % ni tashkil etganligini ko‘rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko‘rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, %



2019 yil 1 oktyabr holatiga 14948 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 4819 ta, oilaviy korxonalar – 2269 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar –7589 va 271 tani boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

Misol tariqasida:

2014-2019 yil shu davr mobaynida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari soni (fermer va dexqon xo‘jaliklarsiz) 10449 dan 17994 taga yoki 72,2 % ga oshgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar-xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*



Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar-xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo‘yicha asosiy qismi mas'uliyati cheklangan jamiyatlari xissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar yildan yilga o‘sib bormoqda va bu ma'lumotlarni statistik raqamlarda kuzatish mumkin.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida jami 4098 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 48,7 % ko‘proq. YAngi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (778 ta), Urganch tumani (545 ta), Xiva shahri (372 ta) va Xazorasp tumani (336 ta), hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kami esa Yangibozor (210 ta), Yangiariq (214 ta) va Bog‘ot (225 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 34,8 %, sanoatda 20,0 %,o‘rmon va baliq xo‘jaligida 12,8 % ni , yashash va ovqatlanish hizmatlari 10,7 % va qurilishda 7,6% tashkil etadi.

Ma'lumot tariqasida:

Viloyatimizda yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlar soni (fermer va dexqon xo‘jaliklarsiz) 2014 yilda 1201 ta, 2015 yilda 1292 ta, 2016 yilda 1506 ta, 2017 yilda 1695 ta va bugungi kun holatiga 3952 tani tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %



2019 yil 1 oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni 14858 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2018 yil shu davriga nisbatan 27,3 % ga oshgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi, ya’ni 3555 tasi (jami sub’ektlarning 23,9 %) Urganch shahriga, 1707 tasi (11,5 %) Urganch tumani , 1421 tasi (9,6 %) Xiva shahri hamda 1300 tasi (8,7 %) Xiva tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 587 ta (4,0 %) Yangibozor, 676 tasi (4,5 %) Shovot, 692 tasi (4,7 %) Bog‘ot, 883 tasi (5,9 %) Qo‘shko‘pir tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining hududlar bo‘yicha soni

	2018 yil 1 oktyabr holatiga		*2019 yil 1 oktyabr holatiga*	
	birlik	*jamiga nisbatan % da*	*birlik*	*jamiga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**11666**	**100**	**14858**	**100**
Urganch sh.	2836	24,3	3555	23,9
Xiva sh.	1197	10,3	1421	9,6
tumanlar:				
Bog‘ot	524	4,5	692	4,7
Gurlan	664	5,7	909	6,1
Qo‘shko‘pir	641	5,5	883	5,9
Urganch	1278	11,0	1707	11,5
Xazorasp	753	6,5	1042	7,0
Xonqa	887	7,6	1182	8,0
Xiva	1211	10,4	1300	8,7
Shovot	494	4,2	676	4,5
Yangiariq	784	6,7	904	6,1
Yangibozor	397	3,3	587	4,0

Faoliyat ko‘rsatayotgan jami 14858 ta kichik tadbirkorlik sub’ektlarining 4733 tasi (31,9 %) – savdoda, 2940 tasi (19,8 %) - sanoatda, 1691 tasi (11,4 %) - qurilishda, 1546tasi (10,4 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida,1156 tasi (7,8 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida, 641 tasi (4,3 %) - tashish va saqlashda, 321 tasi (2,2 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda, 214 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1616 tasi (10,9%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. SHundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %



Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash asosida ularning ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha ishlar etarli darajada tashkil etilmaganligi sababli faoliyat ko‘rsatmayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining jami ro‘yxatga olinganlarning umumiy soniga nisbatan ulushi yuqori bo‘lmoqda. Jumladan, 2019 yilning 1 oktyabr holatiga Urganch shahrida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 1,9 % ni (312 ta) tashkil qilgan, Xivashaxrida esa ro‘yxatdan o‘tganlarning jami sonida 1,2 % ni (172 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 722 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan 238 tasi (jami faoliyati tugatilganlarning 32,9%) ixtiyoriy tugatish tartibini qo‘llash orqali tugatilgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar. 2019 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 124 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 58 taga yoki 87,8 % ga o‘sgan. SHuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 85 tasi qo‘shma korxonalar, 39 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Urganch Shahar 32 ta (25,9 %), Urganch 16 ta (12,9 %) va Shovot 12 ta (9,7%) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qo‘shko‘pir5 ta (4,0 %),Yangiariq 5 ta (4,0 %) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqobatbardoshlik muhitini yaratish maqsadida chet ellik sarmoyadorlarga yurtimiz bozoriga kirib kelishlari o‘z faoliyatlarini olib borishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Buning natijasida keyingi yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar yildan yilga soni kengayib borayotganligi statistik raqamlarda o‘z aksini topgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar bo‘yicha soni va ulushi
(2019 yilning 1 oktyabr holatiga)

	birlik	*Jamiga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**124**	**100**
Urganch sh.	32	25,8
Xiva sh.	8	6,5
tumanlar:		
Bog‘ot	7	5,7
Gurlan	9	7,2
Qo‘shko‘pir	5	4,0
Urganch	16	12,9
Xazorasp	7	5,7
Xonqa	7	5,7
Xiva	9	7,2
Shovot	12	9,6
Yangiariq	5	4,0
Yangibozor	7	5,7

Faoliyat ko‘rsatayotgan 124 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, 56 tasi (45,2 %) sanoat, 23 tasi (18,5 %) savdo, 18 tasi (14,5 %) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida, 15 tasi (12,1 %) qurilishda,4 tasi (3,2 %) tashish va saqlashda,4 tasi (3,2 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda,1 tasi (0,8 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish,1 tasi (0,8%) axborot va aloqa, hamda 2 tasi (1,7 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to‘g‘ri keladi. SHuningdek, eng kam ulushi esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi

(2019 yilning 1 oktyabr holatiga)

	birlik	*Jamiga nisbatan % da*
Jami	**124**	**100**
shu jumladan:		
sanoat	56	45,2
savdo	23	18,5
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	18	14,5
kurilish	15	12,1
tashish va saklash	4	3,2
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4	3,2
axborot va aloka	1	0,8
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	1	0,8
boshqa turlari	2	1,7

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalarning soni 52 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 36 taga ko‘paygan.

Bunda, Turkmaniston Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 20 ta, Rossiya Federatsiyasi – 9 ta, Turkiya -7 ta,Xitoy-4 ta, Eron Islom Respublikasi -3 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 9 ta yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.

52 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Urganch shahri (16 ta), Urganch (9 ta), Yangibozor (5 ta), Xiva (5 ta), Xonqa (4 ta), Shovot (3 ta), Xiva shaxri (3 ta), Xazorasp (3 ta), Gurlan (3 ta) va Qo‘shko‘pir (1 ta) tumanlarihissalariga to‘g‘ri keladi. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning umuman tashkil etmagan tumanlar qatoriga Bog‘ot, Yangiariq tumanlarini kiritish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

	birlik	*Jamiga nisbatan % da*
Xorazm viloyati	**52**	**100**
Urganch sh.	16	30,8
Xiva sh.	3	5,8
tumanlar:		
Bog‘ot	0	0
Gurlan	3	5,8
Qo‘shko‘pir	1	1,9
Urganch	9	17,3
Xazorasp	3	5,8
Xonqa	4	7,7
Xiva	5	9,6
Shovot	3	5,7
Yangiariq	0	0,0
Yangibozor	5	9,6

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 19 ta,qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 11 ta,qurilishda 9 ta, savdoda 7 ta va 6 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, *birlikda*



Shu bilan birga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmlarini kengaytirishda etarli darajada ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli, ayrim hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda beqarorlik saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2019 yil 1 oktyabr holatiga 8 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalar ro‘yxatida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2012 yil 26 aprelda qabul qilingan 327-sonli “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni kuchga kirgandan boshlab, Respublikamizda oilaviy korxonalar faoliyatini tashkil etishda, korxona huquqini muhofaza qilishda va faoliyatini yuritishda sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Buning natijasida, oilaviy korxonalar soni ko‘payib mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishida ijobiy ulushiga ega bo‘lib bormoqda.

Oilaviy korxonalar. YUridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni - 2019 yil 1 oktyabr holatiga 2374 tani tashkil etib, ulardan 2269 tasi yoki 95,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 98,4 % ga oshganligini ta’kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o‘sish dinamikasi,*birlikda*



VIII. XIZMATLAR

2019 yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 4071,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi va 2018 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish 114,0 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish

(2019 yilning yanvar-sentabr oylari uchun)

	Mlrd. so‘m	*O‘sish sur’ati, %*	*Jamiga nisbatan %*
Xizmatlar – jami	**4071,4**	**114,0**	**100,0**
shu jumladanasosiy turlari bo‘yicha:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	218,8	109,7	5,4
moliyaviy xizmatlar	688,7	164,9	16,9
transport xizmatlari	1 022,8	103,4	25,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	976,4	102,4	24,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	96,8	112,9	2,4
savdo xizmatlari	1 142,7	107,7	28,1
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	126,7	102,3	3,1
ta’lim sohasidagi xizmatlar	170,6	117,6	4,2
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	71,7	106,7	1,8
ijara xizmatlari	91,7	103,0	2,2
kompyuterlar vamaishiytovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	144,5	105,7	3,5
shaxsiy xizmatlar	129,6	100,3	3,2
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	54,8	100,8	1,3
boshqa xizmatlar	112,0	126,3	2,8

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yuqori hajm savdo xizmatlari (1142,7 mlrd. so‘m), transport xizmatlari (1022,8 mlrd. so‘m), moliyaviy xizmatlar (688,7 mlrd. so‘m), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (218,8 mlrd.so‘m) ga to‘g‘ri keladi.

Eng kichik hajm me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (54,8 mlrd. so‘m), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (71,7 mlrd. so‘m), ijara xizmatlari (91,7 mlrd. so‘m) ga to‘g‘ri keladi.

SHuningdek, moliyaviy xizmatlar (164,9 %), boshqa xizmatlar (126,3), ta’lim sohasidagi xizmatlar (117,6 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari(112,9 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari(109,7 %)o‘sish sur’atlari yuqori bo‘ldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi
(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari – 28,1 % ulush bilan etakchi o‘rinni egallaydi. Xozirgi vaqtda savdo sohasi iste’molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi xisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko‘rsatilayotgan xizmatlar umumiy xajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda Chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi



Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (28,1%), transport xizmatlari (25,1 %), moliyaviy xizmatlar (16,9 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,4 %) to‘g‘ri keladi.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlar me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,3 %), shuningdek sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,8 %) ga to‘g‘ri kelgan.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozoriqtisodiyotini shakllantirishningeng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda viloyatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni

rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifativa farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1142,7 mlrd.so‘mga teng bo‘ldi. Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 28,1 % ni tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 211,4 mlrd.so‘mga oshdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida quruqlikdagi transport xizmatlari– 97,4 %, omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari – 2,1 %, pochta va kurerlik xizmatlari–0,5 % ni tashkiletadi.

Transportxizmatlariningtarkibi

(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo‘ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo‘lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta’sir ko‘rsatadi.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo‘yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 218,8 mlrd.so‘mga teng bo‘ldi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (96,7 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet, yo‘ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta’minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug‘urta tashkilotlariga ko‘rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlariko‘rsatish, jumladan “raqamli” banklar va chaana xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan bank bo‘linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish,masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatish, to‘lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %

(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)



Natijada, 2019 yil yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 88,7 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, o‘sish 164,9 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi 89,7 % ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug‘urta xizmatlarining ulushi 7,9 % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat 2,4 % ni tashkil etdi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlarning hajmi va o‘sish sur’ati,%
(2019 yil yanvar-sentabr oylari uchun)

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar birinchi navbatda ong va fikrlashdagi ijobiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlab, ma’naviyatni Yuksaltirishga hissa qo‘shadi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida yuqori o‘sish sur’atlari shuningdek ta’lim sohasidagi xizmatlarda – 117,6 % erishildi. Ta’lim sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 170,6 mlrd. so‘mga teng.



